



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anjionovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Остонов Егамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	



OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI

Shadiyeva Gulnora Mardiyevna

iqtisod fanlari doktori, professor,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Rustamova Zarina Rustamovna

mustaqil izlanuvchi,
"Ipak Yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy korxonalarining zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o'rni va ular milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy biznes kichik va o'rta tadbirkorlik segmentining muhim tarkibiy qismi sifatida bandlikni oshirish, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish hamda bozor barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi¹.

Kalit so'zlar: Oilaviy korxonalar; iqtisodiy barqarorlik; avlodlar almashinuvi; korporativ boshqaruv; oilaviy mulkchilik; bandlik; innovatsion rivojlanish; oilaviy tadbirkorlik modeli; barqaror iqtisodiy o'sish; merosiy uzluksizlik; biznesning raqobatbardoshligi; iqtisodiy diversifikatsiya.

Abstract. This article analyzes the role of family businesses in the modern economic system and their impact on the sustainable development of the national economy. The study demonstrates the importance of family businesses, as a significant component of the small and medium-sized enterprise sector, in increasing employment, enhancing regional economic activity, and ensuring market stability.

Key words: Family enterprises; economic sustainability; generational succession; corporate governance; family ownership; employment; innovative development; family entrepreneurship model; sustainable economic growth; hereditary continuity; business competitiveness; economic diversification.

Аннотация. В данной статье анализируется роль семейных предприятий в современной экономической системе, а также их влияние на устойчивое развитие национальной экономики. В ходе исследования показано, что семейный бизнес, являясь важнейшей составной частью сектора малого и среднего предпринимательства, способствует повышению занятости, усилению региональной экономической активности и обеспечению рыночной стабильности.

Ключевые слова: Семейные предприятия; экономическая устойчивость; смена поколений; корпоративное управление; семейная собственность; занятость; инновационное развитие; модель семейного предпринимательства; устойчивый экономический рост; наследственная преемственность; конкурентоспособность бизнеса; экономическая диверсификация.

KIRISH

So'nggi yillarda oilaviy korxonalar milliy va global iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ular kichik va o'rta tadbirkorlik sektorida yetakchi rol o'yinlash bilan birga, yangi ish o'rinlarini yaratish, hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish, bozor infratuzilmasini mustahkamlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirish orqali milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi². Shu bois, oilaviy korxonalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ularning faoliyati jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi³.

- 1 Miller, D., & Le Breton-Miller, I. (2005). Managing for the Long Run: Lessons in Competitive Advantage from Great Family Businesses. Harvard Business School Press.
- 2 Aldrich, H., & Cliff, J. (2003). The pervasive effects of family on entrepreneurship: Toward a family embeddedness perspective. Journal of Business Venturing.
- 3 Miller, D., & Le Breton-Miller, I. (2005). Managing for the Long Run: Lessons in Competitive Advantage from Great Family Businesses. Harvard Business School Press.



Shuningdek, Prezident SH.M. Mirziyoyev oilaviy korxonalar orqali aholining daromadlari va barqaror yashash manbalarini yaratish muhimligini quyidagicha ta'kidlaydi: “Agar biz mablag’ yig’sak, kerakli uskunani ta’minlasak, ulardan qanday unumli foydalanishni o’rgatsak — odamlar o’zini ta’minlaydi, hayotini tashkil qiladi, bolalar uchun kitob oladi, soliqlarni to’laydi va byudjetga daromad soladi.” Bu fikr oilaviy korxonalar iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy ta’minot va mahalliy byudjet daromadlarini oshirishda muhim o’rin tutishini ko’rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy korxonalar iqtisodiy tizimning barqaror segmenti sifatida jahon iqtisodiyotida katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, oilaviy bizneslar kichik va o’rta tadbirkorlik sektorining rivojlanishida, yangi ish o’rinlarini yaratishda va hududiy iqtisodiy salohiyatni oshirishda muhim rol o’ynaydi⁴. Shu bilan birga, ular korporativ boshqaruv, mulkchilikning merosiy uzluksizligi va avlodlararo boshqaruv almashuvi orqali uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi⁵. Oilaviy korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshlikni saqlashdagi rolini tahlil qilib, ularning ichki qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyat orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini ko’rsatadi⁶. Olingan ilmiy manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, oilaviy korxonalar iqtisodiy tizimda nafaqat daromad yaratuvchi, balki barqaror rivojlanish va iqtisodiy diversifikatsiya uchun muhim subyekt hisoblanadi. Shu sababli, ularning boshqaruv tamoyillari, avlodlar almashuvi jarayoni va iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari o’rganilishi tadqiqotning dolzarbligini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda oilaviy korxonalarning iqtisodiy tizimdagi o’rni, ularning iqtisodiy barqarorlikka qo’shayotgan hissasi, bandlik, innovatsion rivojlanish, hududiy iqtisodiy faollik hamda avlodlar almashinuvi jarayonidagi o’ziga xosliklari kompleks o’rganiladi. Tadqiqotda oilaviy korxonalarning iqtisodiy tizimdagi o’rnini chuqur o’rganish maqsadida tizimli yondashuv, iqtisodiy diagnostika, statistik tahlil, modellastirish va sotsiologik kuzatuvlar, komparativ(taqqoslash) usullari qo’llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko’rsatdiki, oilaviy korxonalar O’zbekiston iqtisodiy tizimida kichik va o’rta tadbirkorlik segmentining markaziy bo’g’ini hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko’ra oilaviy korxonalar respublika bo’yicha YalMning 20–25 foizini, bandlikning esa 35–40 foizini ta’minlaydi⁷. (1-jadval)

1-jadval. Oila korxonalarining O’zbekiston iqtisodiyotidagi ulushi⁸

Ko’rsatkichlar	Ulushi (%)	Izoh
YAIMdagi ulushi	20–25%	Oila korxonalari kichik va o’rta biznes segmentining asosiy qismi bo’lib, iqtisodiy faoliyatning barqarorligini ta’minlaydi.
Bandlikdagi ulushi	35–40%	Mehnat bozorida eng yirik ish beruvchilardan biri, hududiy bandlikni ta’minlashda muhim rol o’ynaydi.

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar oila korxonalarining O’zbekiston iqtisodiyotidagi o’rni nihoyatda muhim ekanini ko’rsatadi. Oilaviy tadbirkorlik kichik va o’rta tadbirkorlik (KO’T) sektorining asosiy drayveri sifatida shakllangan bo’lib, u iqtisodiy faollikni oshirish, hududlar barqaror rivojlanishi va aholining turmush darajasini yaxshilashda bevosita rol o’ynaydi. Ushbu sektorning iqtisodiyotga qo’shayotgan hissasi ayniqsa YAIM va bandlikdagi ulushlarda yaqqol namoyon bo’lmoqda.

Oila korxonalarining YAIMdagi 20–25 foizlik ulushi ularning makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi muhim o’rnini tasdiqlaydi. Bu ulush, avvalo, oilaviy biznesning ishlab chiqarish va xizmatlar hajmidagi barqaror o’sishga muntazam hissa qo’shayotganidan dalolat beradi. Bunday korxonalar mahalliy resurslardan oqilona va samarali foydalanishi, qiymat zanjirida yuqori qo’shilgan qiymat yaratish qobiliyatiga ega bo’lgani sababli milliy iqtisodiyotning ichki barqarorligini mustahkamlaydi.

4 Aldrich, H., & Cliff, J. (2003). The pervasive effects of family on entrepreneurship: Toward a family embeddedness perspective. *Journal of Business Venturing*.

5 Gersick, K., Davis, J., Hampton, M., & Lansberg, I. (1997). *Generation to Generation: Life Cycles of the Family Business*. Harvard Business School Press.

6 Miller va Le Breton-Miller (2005)

7 O’zbekiston Respublikasi Statistika qo’mitasi, 2023

8 O’zbekiston Respublikasi Statistika qo’mitasi, 2023



Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik kichik biznesni rivojlantirish orqali iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytiradi. Ya'ni iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasida risklar kamayadi, yangi bozor segmentlari shakllanadi va mahalliy ishlab chiqarish ekotizimi kengayadi. Oila korxonalarining YAIMdagi yuqori ulushi ularning faolligi an'anaviy yo'nalishlar bilan cheklanmay, xizmat ko'rsatish, savdo, turizm, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik kabi tarmoqlarda ham izchil kengayayotganini anglatadi. Natijada, oilaviy tadbirkorlik nafaqat mikro darajadagi iqtisodiy faoliyatni jonlantiradi, balki milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi strategik omilga aylanadi.

Oila korxonalari bandlik bozorining eng muhim segmentlaridan biri bo'lib, 35–40 foizlik ulush bilan mehnat bozorining asosiy tayanch guruhiga aylangan. Bu holat bir necha omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, oila korxonalari kichik va moslashuvchan mehnat bozorini yaratadi. Ular yangi ish o'rinlari yaratish orqali mahalliy aholi bandligini ta'minlaydi, ayollar va yoshlarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, oilaviy tadbirkorlik hududlar iqtisodiy faolligini oshiradi. Aksariyat oila korxonalari qishloq va chekka hududlarda faoliyat yuritadi, bu esa hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, oilaviy korxonalar norasmiy mehnatni qisqartiradi. Ularning rasmiy sektorga kirishi qonuniy mehnat sharoitlarini yaxshilaydi, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kengaytiradi va ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlaydi.

Bu esa oilaviy tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini tasdiqlaydi.

- Oilaviy korxonalar hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda ham muhim rolni o'ynaydi. Hududlar kesimida o'tkazilgan solishtirma tahlil natijalariga ko'ra oilaviy korxonalar soni yuqori bo'lgan hududlarda bandlik darajasi va o'rtacha daromad darajasi ham sezilarli darajada yuqoriroq. Shu bilan birga, oilaviy korxonalar mahalliy resurslarni samarali ishlatib, bozor barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra: "Har bir oila biznes bilan shug'ullanishi lozim" – bu tamoyil oilaviy korxonalarning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yuksaltiradi va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganini ko'rsatadi.

- Oilaviy korxonalar bandlik yaratishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Anketalar va intervyular asosida olingan ma'lumotlarga ko'ra, har bir oilaviy korxona o'rtacha 5–10 ish o'rnini ta'minlaydi. Bu esa bandlikning mahalliy darajada oshishiga, kambag'allikni kamaytirishga va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, oilaviy korxonalarda ish o'rinlari ko'pincha uzoq muddatli bo'lib, xodimlar bilan oila sifatida aloqalar rivojlangan. Bu esa ishchi motivatsiyasini oshiradi va mehnat unumdorligini yaxshilaydi.

- Oilaviy korxonalar uzoq muddatli barqarorlikni saqlash uchun avlodlar almashinuvi mexanizmlarini samarali qo'llashlari lozim. Hind olimi P. Sharmaning⁹ tadqiqotlariga ko'ra, generatsiyalar o'rtasidagi boshqaruv almashinuvi oilaviy korxonalarning uzoq muddatli barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi.

- O'zbekiston oilaviy korxonalarda avlodlar almashinuvi jarayoni izchil shakllangan mexanizmlar asosida amalga oshadi. Avvalo, bu jarayon rejalashtirilgan merosiy uzluksizlik tamoyiliga tayanadi, ya'ni ota-onalar faoliyat yo'nalishi, strategik maqsadlar va moliyaviy boshqaruv bilan bog'liq asosiy vazifalarni bosqichma-bosqich farzandlarga topshiradi. Shu bilan birga, almashinuvning muhim qismi sifatida kadrlarni tayyorlash va boshqaruv madaniyatini shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi: yosh avlod korxonaning kundalik faoliyati, boshqaruv jarayoni, mijozlar bilan ishlash, innovatsion yondashuvlar va bozor talablari bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarni egallaydi. Nihoyat, avlodlar o'rtasidagi ijrochi va maslahat beruvchi rollar taqsimoti oilaviy korxonalarda qaror qabul qilish tizimini yanada mukammallashtiradi — katta avlod ko'proq strategik maslahat beruvchi rolni bajararkan, yoshlar amaliy boshqaruv vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Shu tarzda avlodlar almashinuvi oilaviy biznesning barqarorligini, innovatsion salohiyatini va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi.

- Oilaviy korxonalar innovatsion yondashuvlarni joriy qilish orqali o'z faoliyatini kengaytiradi va mahsulot hamda xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra:

- Oilaviy korxonalar o'rtacha 15–20% darajada innovatsion faoliyatga investitsiya qiladi.
- Mahsulot va xizmatlar portfeli diversifikatsiyasi orqali bozordagi risklar kamayadi va iqtisodiy barqarorlik oshadi.

Bu esa oilaviy tadbirkorlikni iqtisodiyotning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon qiladi. O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasi va prezident farmonlari oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Sh.M. Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra: "Tadbirkorlarning muvaffaqiyati — xalqning muvaffaqiyati." Yurtboshimiz oilaviy korxonalarni qo'llab-quvvatlash orqali milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash strategiyasini ifodalaydi. Davlat tomonidan taqdim etilgan subsidiyalar, kredit liniyalari va soliq imtiyozlari oilaviy korxonalar faoliyatini sezilarli darajada rag'batlantiradi.

9 Sharma, P. (2004). An overview of the field of family business studies: Current status and directions for the future. Family Business Review



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari oila korxonalarining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini chuqur tahlil qilish imkonini berdi va ushbu sektorning barqaror rivojlanish jarayonlarida tutgan strategik ahamiyatini tasdiqladi. Avvalo, oilaviy korxonalar iqtisodiy tizimda barqaror segment sifatida faoliyat yuritib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmlarining uzluksiz o'sishiga sezilarli hissa qo'shadi hamda milliy iqtisodiyotning mustahkam rivojlanishiga xizmat qiladi. Boshqaruvning oilaviy xususiyatlari, mulkchilikning merosiy uzluksizligi va avlodlar almashinuvi mexanizmlarining mavjudligi korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi asosiy tashkiliy omillar bo'lib, ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Bundan tashqari, oilaviy korxonalar hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va bozor raqobatbardoshligini mustahkamlash orqali mahalliy iqtisodiy tizimning dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat, diversifikatsiya strategiyalari hamda uzoq muddatli rejalashtirish jarayonlari ularning iqtisodiy samaradorligi va barqarorligini yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqotdan olingan natijalar oilaviy korxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning iqtisodiy tizimdagi rolini kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotda barqaror o'sishni ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam asos yaratadi. Mazkur tavsiyalar oilaviy tadbirkorlikning institutsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, boshqaruv madaniyatini modernizatsiya qilish, innovatsion salohiyatni kengaytirish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedov, S. (2018). Oilaviy korxonalar iqtisodiy samaradorligi va ularning rivojlanish mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot va Menejment Noshiri.
2. Raxmonov, B. (2019). Oilaviy biznes va hududiy iqtisodiy barqarorlik: nazariy va amaliy masalalar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
3. Yusupov, M. (2020). Oilaviy korxonalarda avlodlar almashuvi va boshqaruv tizimi. Toshkent: Fan va Texnologiya Noshiri.
4. Karimova, N. (2021). O'zbekiston oilaviy biznesining iqtisodiy tizimdagi roli va barqarorligi. Toshkent: Iqtisodiyot va Moliyaviy Tadqiqotlar Markazi.
5. Idrich, H., & Cliff, J. (2003). The pervasive effects of family on entrepreneurship: Toward a family embeddedness perspective. *Journal of Business Venturing*.
6. Anderson, R., & Reeb, D. (2003). Founding-family ownership and firm performance: Evidence from the S&P 500. *Journal of Finance*.
7. Gersick, K., Davis, J., Hampton, M., & Lansberg, I. (1997). *Generation to Generation: Life Cycles of the Family Business*. Harvard Business School Press.
8. Miller, D., & Le Breton-Miller, I. (2005). *Managing for the Long Run: Lessons in Competitive Advantage from Great Family Businesses*. Harvard Business School Press.
9. Zellweger, T. (2017). *Managing the Family Business: Theory and Practice*. Edward Elgar Publishing.
10. De Massis, A., Frattini, F., Kotlar, J., Petruzzelli, A. M., & Wright, M. (2015). Innovation in family firms: A review and future research agenda. *Family Business Review*.
11. Sharma, P. (2004). An overview of the field of family business studies: Current status and directions for the future. *Family Business Review*.
12. Chrisman, J. J., Chua, J. H., & Sharma, P. (2005). Trends and directions in the development of a strategic management theory of the family firm. *Entrepreneurship Theory and Practice*.
13. Astrachan, J. H., & Shanker, M. C. (2003). Family businesses' contribution to the US economy: A closer look. *Family Business Review*.
14. Koiranen, M. (2002). Dynamics in family firms: A comparative approach. *Family Business Review*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>